

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA  
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI MUXANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

**«Qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis»  
kafedrasи**

**“ICHKI YONUV DVIGATELLARI”**

**O‘QUV - USLUBIY MAJMUA**

**QARSHI-2023**

**Tuzuvchi:** QarMII «QXM va S » kafedrasi dosenti, **N.Rashidov**

**Taqrizchilar:** QarMII dosenti **I.Toirov**  
QarDU dosenti **X.Maxmov**

Fanning “O’quv uslubiy majmuasi” Qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish va servis kafedrasi ((bayon №\_\_\_\_, \_\_\_\_, \_\_\_\_ 2023-yil.), Muhandislik texnikasi fakultetining (bayon №\_\_\_\_, \_\_\_, \_\_\_ 2023-yil.) va Institut Uslubiy Kengashida (bayon №\_\_\_\_, \_\_\_, \_\_\_ 2023-yil.) muhokama etilgan va o‘quv jarayonida foydalanishga tavsiya qilingan.

## **1-mavzu. IYOD tarixi. IYOD klassifikatsiyasi. IYOD larning haqiqiy sikllari, ekspluatatsion xususiyatlarining asosiy ko‘rsatkichlari**

### **REJA**

1.Kursning asosiy vazifalari. Ilmiy texnik taraqqiyot davrida energetikaning ahamiyati. Porshenli IYODning yaratilishi va riojlanishining qisqacha tarixi. Ulardan foydalanish sohalari. Yonilg‘i- energetika resurslari va tashqi muhitni muhofaza qilish muammolari.

2.Avtomobil transporti uchun dvigatelsozlik muammolarini hal qiladigan ilmiy markazlar va zavodlar.

3.Avtomobil va motor zavodlarining IYOD konstruksiylarini takomillashtirishdagi ahamiyati, IYODning tasnifi. Dvigatellarning asosiy turlari uchun qabul qilingan atamalar.

4. IYODlar rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari va vazifalari. Dvigatellarning ekologik ko‘rsatkichlari: ishlatilgan gazlarning zaharliligi va tutunlik darajasi.

1.Avtomobil dvigatellarining ekspluatatsion ko‘rsatkichlari.

### **O‘quv fanning maqsadi va vazifalari**

Mazkur fanning o‘qitishni asosiy maqsadi avtotraktorlarda qo”llanilayotgan ichki yonuv dvigatellari bo‘yicha chuqur bilim berish va ular asosida issiqlikka hisoblash jarayonini o’rgatish.

Fanning vazifalari quyidagilardan iborat:

- IYOD ning vazifasi, tasniflari ish jarayonlari, avtovozsposhtda tutgan o’rni va issiqlik energiyasining mexanik energiyaga aylanish jarayoni o’rgatish;

- IYOD da mavjud mexanizmlar va tizimlarning vazifalari, uni tashkil qilgan detallari, yonish jarayoni va dvigatellarning isiqqlikq hisoblash usullarini o‘rganish.

Yoqilg‘i-energetika resurslari (YOER) - bu material obyekt bo‘lib, unda inson tomonidan amaliy foydalanishga yaroqli energiya to‘plangan. Energetika resursi deb — tabiiy yoki sun’iy faollashgan har qanday energiya manbaiga aytildi. Energiya resurslari — hozirgi vaqtida ishlatilayotgan yoki kelajakda ishlatilishi mumlcin bo‘lgan energiya tashuvchilardir. Tabiiy resurslarni shu jumladan energetika resurslarini

o'rganishda ularning ilmiy tasnifi, ya'ni xomashyo, obyektlar va tabiiy muhit hodisalar yig'indisini funksional muhimlik belgilarini bo'yicha ajratish kerak. Tabiiy resurslarning tasniflaridan biri - bu tugallanish belgisi bo'lib, unga muvofiq energetika resurslarini tugallanadigan va tugallanmaydigan resurslarga bo'linadi. O'z navtabatida tugallanadigan resurslar tiklanuvchi va tiklanmaydigan bo'lishi mumkin. Tiklanuvchilarga tabiat (yer, o'siinliklar, hayvonlar va h.k.) tomonidan tiklanadigan rusurslar kiradi, tiklanmaydiganlarga — ilgari tabiatda to'plangan lekin, yangi geologik sharoitlarda hosil bo'lmaydigan resurslar (neft, ko'mir va boshqa yer osti zaxiralari) kiradi. Tugallanmaydiganlariga kosmik, iqlimiylar, suv resurslari kiradi.

### **Ilmiy texnik taraqqiyot davrida energetikaning ahamiyati.**

O'zbekistonning zamonaviy neft-gaz sanoati iqtisodiyotning yirik sohalaridan biridir, u mamlakatning eng muhim energetik bazasi hisoblanadi. Sohada katta ilmiy-texnik potensial yaratilgan. 30 2001-2006-yillar mobaynida soha tuzilmasini takomillashtirish, uni texnik ta'minlash va qayta qurollantirish, konlarni o'zlashtirishni tezlashtirish bo'yicha juda katta ishlar qilindi, bu neft va gaz olish hajmini keskin oshishiga olib keldi. «0'zneftgaz» milliy holding kompaniyasi bugunda ko'p sohali sanoat-xo'jalik majmuasi b o iib qoldi, bu kompaniya neft va gazni qidirib topish, ishlab chiqarish, u va undan hosil bo'lgan mahsulotlarni sotish bo'yicha ishlarni amalga oshiradi. ishlab chiqarish obyektlari va ijtimoiy rivojlanish obyektlarning qurilishini ta'minlaydi. Yer osti neft gazlarining zaxirasining kelajagi, to'plangan ilmiy-texnik potensial, boy ishlab chiqarish tajribasi, sohani bundan keyingi rivojlanishiga zamin yaratadi. Kompaniyada chet el kompaniyalari bilan yirik loyihalarni amalga oshirish, eskirgan texnikani almashadirish va yangilashni tezlatish, ishlab chiqarishda sifat jihatidan yangi jihozlar, materiallar, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash bo'yicha va natijada neft-gaz majmuasini tezkor rivojlantirishni amalga oshiruvchi katta masshtabli dastur ishlab chiqildi. Bu dasturni o'zlashtirish O'zbekistonni dunyo iqtisodiyoti integratsiyasining mustahkamlashini ta'minlaydi.

Oxirgi yillar mobaynida O'zbekiston dunyoning eng katta neftgaz davlat o'nligiga mustahkam kirgan. 1997-yildan mamlakatimiz har yili 10 mlrd.m' dan ko'p gaz va 8

mln.tonnadan ko'p neft qazib olib. bu sohada MDH orasida mos ravishda 2- va 4- o'rirlarni egallab kelraoqda. Gaz qazib olish bo'yicha O'zbekiston dunyoda 8- o'rinda turadi. 1991-yildan 2006-yilgacha bo'Igan davrda O'zbekistonning neft va gaz sanoati barcha ishlab chiqarish va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Uglevodorod xomashyosini qazib olish 2001-vilda 80 mln.tonna shartli yoqilg'i darajasiga yetdi, bu esa 1991-yildagiga nisbatan 1.1 barobar ortiqdir. Neft va gaz resurslarining bugungi zaxirasi m a'lumotlar bo'yicha pul ekvivalentida 1,0 trillion AQSH dollarini tashkil etadi; kelajagi bor. aniqlangan va tayyorlangan neft va gaz tutgichlari O'zbekislondagi barcha neft va gaz hududlarda muvaffaqiyatli qidirib topish va qazib olish ishlarini olib borish imkonini beradi. O'zbekistonda 187 ta neft va gaz konlari ma'lum. Shulardan neft qazib olish 11 ta konda, gaz qazib olish 27 ta konda, kondensat - 17 ta konda amalga oshiriladi. Zaxiralar bo'yicha ochilgan konlar: yirik (Gazli va Sho'rtan); katta (Ko'kdumaloq, Zevarda, Kandim, Dengizko'1 Xauzak va boshqalar), o'rta (g'arbi, Alan, Yurga va boshqalar) hamda ko'p mayda konlar mavjud. O'zbekiston zaxirasi bo'yicha bashoratlar, o'rtacha dunyo oichovlari bo'yicha juda katta bo'lib - 14 mlrd. tonnaga yaqin shartli yoqilg'ini tashkil etadi. Ochiq konlarda qidirib topilgan uglevodorodlar 3100 mil. tonnadan ko'p shartli yoqilg'ini tashkil etadi. O'zbek konlaridagi isbot qilingan uglevodorod zaxiralari dunyo masshtablari bo'yicha o'rtacha bo'lib 194 mln. barrel neft 1,9 trln.m<sup>3</sup> gazni tashkil etadi.

### **Porshenli IYODning yaratilishi va riojlanishining qisqacha tarixi. Ulardan foydalanish sohalari**

Ichki yonuv dvigateli bu yonilg'ini yoqish hisobiga mexanik energiya hosil qilishga mo'ljallangan issiqlik mashinasi tushuniladi. Bunda yonilg'ining yonishida issiqlik ajralib chiqishga olib keluvchi ximiyaviy reaksiyalar va ajralgan issiqlikning mexanik ishga aylanishi tsilindr deb atalgan ish organiga amalga oshiriladi. TSilindrning ichida porshen xarakatlanadi, shu sababli ichki yonuv dvigatellari porshenli dvigatellar deb ataladi. Eng ko'p tarqalgan issiqlik dvigatellardan - bu ichki yonar dvigatellardir. Dunyo bo'yicha ishlab chiqarilayotgan quvvatning 80 foizi ichki yonur dvigatellar xissasiga to'g'ri keladi. Ichki yonuv dvigatellarning ixchamligi, mustaxkamligi, chidamliligi va tejamkorligi uchun halq

xo'jaligining xamma soxalarida qo'llanilmoqda. Frantsiyada 1-nchi porshenli ichki yonuv dvigatelli 1860 yilda Lenuar tomonidan yaratilgan. Bu dvigatel ikki taktli bo'lib, taqsimlash mexanizmi zolotnikli bo'lgan, havo-yoqligi aralashmasi tashqi manba energiyasi orqali yondirilgan, yoqlig'i sifatida yorug'lik beruchi gaz (svetilny gaz) ishlatilgan. 1876 yili nemis konstruktori N.Otto 4 taktli gazda ishlaydigan dvigatel yaratdi. Bu dvigatelda yonish oldidan aralashma siqilgan, buning natijasida dvigatelning tejamkorligini Lenuar dvigatelia qaraganda oshirishga imkon berdi. Ottoning dvigateli sanoatda ishlatilgan. 1889 yili Rossiyada I.S.Kostovich tomonidan suyuq yoqlig'ida ishlaydigan (benzin) dvigatel yaratilgan, bu dvigatel drijabellarga o'rnatish uchun mo'lljallangan. 1897 yili nemis injeneri R.Dizelq birinchi bo'lib siqish natijasida alanga oladigan dvigatel yaratdi. Rossiyada yonilg'ini siqish natijasida alanga olib ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan birinchi dvigatel 1899 yildan boshlab yaratila boshlandi. 1901 yili Rossiyada G.V.Trinkler tomonidan 1-nchi kompressorsiz dizelq qurilgan. Rus injener Ya.V.Mamin 1910 yili traktorlar uchun yaratgan kompressorsiz dvigateli axamiyatga molikdir. IYoD larni ishlab chiqarish ortib borishi bilan ularning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari ham takomillashdi. Bunda asosan yonilg'ining ekspluatatsion sarfni kamaytirish, havoni tsilindrga bosim ostida kiritish usulini qo'llash hisobiga kuch moslamalarining agregat quvvatini oshirish, dvigatellarning motoresursini oshirish bilan bir qatorda unga sarf bo'ladigan metallni kamaytirish, ekologik xarakteristikalarini yaxshilash, texnik xizmat ko'rsatishga sarf bo'ladigan vaqtini qisqartirish, sozlash jarayonlarini avtomatlashtirish, ishlatiladigan yonilg'i turlarini ko'paytirish, ishlatiladigan yonilg'i turlarini ko'paytirishdan iborat. Dvigatellarni ishlab chiqarishni rivojlantirish bilan birgalikda, dvigatellarning nazariyasi ham rivojlanaberdi. Dvigatellarni nazariyasini rivojlantirishga V.I.Grinevetskiy, N.R.Brling, Ye.K.Mazing, Stechkin B.S. va boshqa olimlar katta xissa qo'shishgan. Ulug' rus issiqlik texnigi V.I.Grinevetskiy bug' mashinalarida, qozonlar agregatlarida va ichki yonar dvigatellarida kechadigan ish jarayonlarini tadqiqot qilgan. V.I.Grinevetskiy o'zining —Ichki yonar dvigatellarining ish jarayonini issiqlik hisobi kitobida dvigatelning issiqlik hisobi to'g'risidagi uslubini birinchi bo'lib taklif qildi. N.R.Brling

Rossiya FA muxbir a'zosi, Rossiyada xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, texnika fanlari doktori, professor, avtomobil dvigatellarining nazoriy asoschisidir. Dvigatellarda issiqlikni uzatishni o'rganish bo'yicha qilgan tadqiqotlari ma'lumdir. Uning raxbarligida kelajagi porloq tez yurar dizellar, aviatsiya va avtomobillar dvigatellari ixtiro qilingan. U birinchi bo'lib rus tilida ichki yonuv dvigatellari to'g'risida darslik yozgan. O'zini qilgan tadqiqot ishlarini umumlashtirib issiq berish koeffitsientini topish formulasini taklif qildi. Rossiyada xizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, texnika fanlari doktori Ye.K.Mazing o'zining ustozni V.I.Grenevetskiyning ta'limotini rivojlantirdi. U dvigatellar issiqlik hisobini takomilashtirdi, gazni generirovat qilish va uni ichki yonar dvigatellarda ishlatish masalari bo'yicha tadqiqot ishlari olib bordi. Uning qattiq va suyuq yoqilg'ilarning yonishi masalalariga bag'ishlangan ilmiy asarlari ichki yonar dvigatellarni loyihalashda qo'llaniladi. Akademik, professor, mehnat qaxramoni B.S.Stechkin «Gidroaeromexani-ka va teplotekhnika» bo'yicha mashxur olimdir, N.E.Jukovskiyning shogirdi. Uning mashinalarning termodinamika (issiqlik dinamika) va gaz dinamikasi sohasi bo'yicha qilingan ilmiy ishlari porshenli va kombinirovlanli ichki yonuv dvigatellarning nazariyasida va tajribasida keng qo'llanilmoqda. B.S.Stechkin indikator jarayonini tadqiqt qilishga katta xissa qo'shgan, havo-reaktiv dvigatellarini nazariy asosini ishlab chiqqan. Ichki yonuv dvigatellarni yaratish va takomillashtirish bilan birlgilikda ularning ishlashi samaradorligini oshirish ham katta axamiyatga egadir. Bu soxada Toshkent avtomobil yo'llar institutining o'qituvchi va professorlari ham ma'lum darajada ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. O'zRda hizmat ko'rsatgan fan va texnika arbobi, Vazirlar Kengashining va Beruniy nomli mukofot laureati, texnika fanlari doktori A.A.Mutalibov raxbarligida gaz kondensatlari, gaz xoldagi yonilg'ilar va dvigatellarni O'rta Osiyo sharoitida ishlatib samaradorligini oshirishda katta xissa qo'shildi. Hozirgi kunda institut rektori, qishloq xo'jalik akademiyasining muxbir a'zosi, texnika fanlar doktori, professor S.M.Qodirov raxbarligida O'zbekistonning yangi avtomobillarini yaratish bo'yicha, dvigatellarni gilza-porshen guruxini keramik qoplamlalar bilan qoplash bo'yicha, benzinda ishlaydigan dvigatellarni dizel dvigatellar bilan almashtirish bo'yicha, ish olib bormoqdalar. O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan Neksiya,

Damas va Tiko avtomobil dvigatellarini gazga o'tkazish bo'yicha hamda ularni agregat va mexanizmlarini ekspluatatsiyasi va tuzilishi bo'yicha hamda ularni agregat va mexanizmlarini ekspluaattsiyasi va tuzilishi bo'yicha ko'rgazmali materiallar va o'quv qo'llanmalari tayyorlandi. Issiqlik texnikasi va dvigatellar kafedrasida 8ta ilmiy va 4 ta o'quv xonalari bo'lib, ular zamonaviy qurilmalar va jihozlar bilan ta'minlangan.

## **2.Avtomobil transporti uchun dvigatelezlik muammolarini hal qiladigan ilmiy markazlar va zavodlar.**

Mashinalarni ishlab chiqarishni birinchi bosqichi 1992 - yilda Janubiy Koreaning DaewooMotors kompaniyasi bilan tuzilgan manfatli shartnomadan boshlangan, o'shanda 'zbekistonning Autoqishxo'jamash O va Daewoo kompaniyasi 10 % ga 10 % ulshli shartnoma imzolangan va manashu shartnoma Automobilsozlikda juda katta burilish yasadi. 1993 - yilda UzDaewooAuto kompaniyasi davlat ro'yhatiga olindi va Andijon viloyatining Asaka shahrida korxona qurish ishlari boshlandi va uning umumiy summasi 618 mln dollarni tashkil etgan. Automobillarni ishlab chiqaradigan zavod o'shanda Koreaning eng zamonaviy texnologiyalari bilan jixozlandi, malakali ishchilar qabul qilindi va shu jumladan 1000ga yaqin O'zbekistonlik yoshlar Koreaga borib ish o'rganib kelishdi. Zavodda birinchi mashinaning ishlab chiqarilishi 1996- yildan boshlandi va birinchi bolib Damas rusumli automobil mart oyidan boshlab Tico iyun oyidan Nexia rusumli mashinalar ishlab chiqarila boshladi. 1996 -yil 19- iyulda Zavodning ochilish marosimi bo'lib o'tdi va unda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi.Zavodning ilk yillarda barcha butlovchi qisimlar xorijdan keltirilgan keyinchlik esa mashinalarning butlovchi qisimlarini tayyorlaydigan kichik korxonalar o'zlashtirilgan va shu yerning o'zida tayyorlangan. 2000- yil O'zDAEWOAvto zavodiga ISO - 9001 sersifikati berildi va 2001 -yil zavodning yangi yanada zamonaviy lineasi ishga tushirildi buni natijasida yangi Matiz rusumli yangi Automobil rusumi ishlab chiqarila boshladi, keyinchalik yana bir yangi Lasetti rusumli mashina ishlab chiqarish yo'lga qoyildi. 2007 -yilda UzDaewooAoto kompaniyasi negizida General - Motors korparatsiyasi bilan xamkorligda GM-Uzbekiston kompaniyasi tashkil etildi buning natijasida eng zamonaviy Kaptiva , Epika , Takuma kabi

mashinalar [Chevrolet](#) brendi ostida ishlab chiqarildi. 2010- yilda Chevroletning eng zamonaviy Automibillaridan bo‘lgan [Spark](#) rusumli mashinalar ishlab chiqarildi. Shu tariqa Automobilsozlikni mustaxkam poydevori yaratildi .

**JV Man Auto-Uzbekistan — O‘zbekiston-Olmoniya** qo‘shma korxonasi. [MAN](#) rusumli yuk mashinalari ishlab chiqaradi. [2009-yilda O‘zavtosanoat](#) va [MAN](#) shirkatlari o‘rtasidagi kelishuvga binoan tashkil topgan. Kelishuv [O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov](#) va [MAN](#) bosh direktori [Hokan Samuelsson](#) tomonidan imzolangan. Zavodi [Samarqandda](#) joylashgan<sup>[1][2][3][4][1]</sup>. Korxonaning barqaror faoliyat korsatishi uchun barcha ishi-xizmatchilar nemis tilini o‘rganishgan va nemis mutaxassislari tomonidan o‘qitilganlar. 2009-2012-yillar davomida yuk avtomobillari [Samarqand avtomobil zavodida](#) ishlab-chiqarildi<sup>[6]</sup>. 2012-yilda [Jomboy tumanida](#) MAN avtomobil zavodi qurib bitkazildi<sup>[7]</sup>. Rejaga ko‘ra, zavod yiliga 100dan 1100 donagacha yuk mashinalari ishlab chiqarishi kerak edi<sup>[8][9]</sup>. Yuk mashinalari [MDH](#) mamlakatlariga ham eksport qilinadi.

### **Avtobus ishlab chiqarish**

1991-yilda O‘zbekistonning Autosanoat kompaniyasi va Kochxolding kompaniyasi bilan hamkorligda Samarqand viloyatida autobuslarni ishlab chiqarish boshlandi . Samkochauto davlat royhingga olindi va 1999-yilda Otayo‘l rusumli autobuslarni tayyorlash boshlandi, shu yilning o‘ziga 163 ta autobus, 302 ta yuk automobili ishlab chiqarildi. 2000- yilda esa bu ko‘rsatkichlar 483 va 102 tani tashkil etdi. 2001 -yilda O‘zbekistonda automobil sanoatida band bolgan ishchilar soni 14 mingga yetdi

### **Ichki yonuv dvigatellarining tasniflanishi va rusumlanishi**

Porshenli har qanday ichki yonuv dvigatellarida ximiyaviy energiya issiqlik energiyasiga, so‘ng mexanik energiyasiga aylantirilgani uchun traktor va avtomobillarda, ulaming tiplari va vazifalaridan qat‘i nazar, energiya manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Energiyani bir ko‘rinishidan ikkinchi ko‘rinishiga aylantirishda har xil usullardan foydalilaniladi. Bu usullaming o‘ziga xos konstruktiv belgilari bo‘lib, ular quyidagilar:

**Qo‘llanilayotgan yonilg‘ining turi bo‘yicha:**

- benzinda ishlovchi dvigatellar;
- dizel yonilg‘isida ishlovchi dvigatellar;
- gaz yonilg‘isida ishlovchi dvigatellar;
- gaz-suyuqlik yonilg‘isida ishlovchi dvigatellar; bu yerda asosiy yonilg‘i sifatida, gaz,  
o‘t oldirish va qo‘srimcha purkash uchun - suyuq yonilg‘i ishlatiladi.

**Yonuvchi aralashmani tayyorlash usuli bo‘yicha:**

- silindrda tashqarida tayyorlash (karbyuratorli va gaz dvigatellari);
  - silindming ichida tayyorlash (yonilg‘ini bevosita silindrga yoki old-uyurma kameraga va gazni ham silindrga purkash usuli qoilanilgan dvigatellar).

**Yonilg‘ini alangalatish usuliga qarab:**

- uchqun yordamida majburiy o‘t oldirish (karbyuratorli va gaz dvigatellari);
  - o‘z-o‘zidan yonish (dizel dvigatellari);
  - gaz-dizel dvigatellari (gaz oz miqdorda, purkalgan dizel yonilg‘ isini yonishidan yonib ketadi).

**Ishchi siklda issiqlikni berish usuli bo‘yicha:**

- o‘zgarmas hajmda issiqlikni berish (karbyurator va gaz dvigatellari);
  - o‘zgarmas bosimda issiqlikni berish (kompressor dizellari);
    - aralash issiqlikni berish (zamonaviy dizel dvigatellari).

**Ishchi siklni amalga oshirish usuli bo‘yicha:**

- to‘rt taktli dvigatellar. Ishchi sikl porshenning to‘rt takti davomida yoki tirsakli valning ikki aylanishida amalga oshadi;
  - ikki taktli dvigatellar. Ishchi sikl porshenning ikki takti yoki tirsakli valning bir aylanishi davomida amalga oshadi.

**Silindrni to‘ldirish usuli bo‘yicha:**

- nadduvsiz dvigatellar (bunda silindming ichiga kirgan havoningyoki aralashmaning bosimi atmosfera bosimiga teng yoki kichik bo‘ladi);

- nadduvli dvigatellar (bunda silindming ichiga havo yoki aralashma bosim ostida kiritilgani uchun silindming ichidagi bosim atmosfera bosimidan yuqori bo‘ladi).

#### **Yonish kamerasining tuzilishi bo‘yicha:**

- ajralmagan yonish kamerali (bir kamerali) dvigatellar;
- yarim ajralgan yonish kamerali dvigatellar (bularda yonish kamerasini porshen tubida joylashgan bo‘ladi);
- ajralgan yonish kamerali dvigatellar (old yonish kamerali va uyurma yonish kamerali dvigatellar).

#### **Silindrلarning joylashuvi bo‘yicha:**


- bir qatorli (ularda silindrler bir qatorda joylanadi, ko‘p hollarda, umumiy silindrler blokiga birlashtiriladi (ko‘p avtomobil va traktorlar dvigatellari);
- bir-biriga nisbatan burchak ostida joylashgan, ular orasidagi burchak  $30^\circ$ ,  $60^\circ$ ,  $90^\circ$ ,  $120^\circ$  va  $180^\circ$  bo‘lishi mumkin

#### **Silindrлarning soni bo‘yicha:**

- bir silindrli;
- ko‘p silindrli (2,4,6,8,12).

#### **Dvigatellarning asosiy turlari uchun qabul qilingan atamalar.**

Buning uchun bir silindrli dvigatelning sxemasidan foydalanamiz  
(1 -rasm).



1-rasm. Porshenli ichki yonuv dvigatelining sxemasi.: 1 – tirsakli val o'qi 2 – кривошип; 3 – шатун; 4 – поршен бармоги о'зи.

Ishlayotgan dvigatelda porshen doimo ikkita chekka nuqtaga ega bo'ladi. Porshenning tirsakli valdan eng uzoqda joylashgan nuqtasini YUQORI CHEKKA NUQTA (YUCHN), deb ataymiz.

Porshenning tirsakli valga eng yaqin joylashgan nuqtasini PASTKI CHEKKA NUQTA (PCHN) deb ataymiz.

**Krivoship radiusi** deb, tirsakli valning o'zak bo'yni markazidan shatun bo'yni markazigacha bo'lган masofaga aytildi.

**Shatun uzunligi** deb, tirsakli valning shatun bo'yni markazidan shatunning yuqori kallagining markazigacha bo'lган masofaga aytildi.

Porshenning yuqori chekki nuqtasidan pastki chekki nuqtasigacha (yoki aksincha) bosib o'tgan masofasiga **porshen yo'li** deyiladi va S harfi bilan belgilanadi.

Porshenning har bir y o ii tirsakli valning yarim aylanishiga yoki krivoshipning  $180^\circ$  ga burilishiga to'g'ri keladi. Bu degani, tirsakli val bir marotaba ( $360^\circ$ ) aylanganda, porshen S masofani 2 marotaba bosib o'tadi.

Porshen yo'li S doimo krivoship radiusining ikkilanganiga teng, ya'ni

$$S=2 \cdot r$$

Krivoshipni cp burchakka og'gandagi porshenning bosib o'tgan yo'li quyidagicha aniqlanadi.

$$S_p = r(1 - \cos\varphi + \frac{\lambda}{2} \sin^2\varphi)$$

bu yerda:  $\lambda$  - krivoship radiusini shatunning uzunligiga nisbati.

Zamonaviy traktor va avtomobillar dvigatellari uchun

$$\lambda = 1/3,0 \dots 1/4,8$$

atrofida qabul qilinadi.

Shuningdek, porshenning tezligi quyidagi ifodadan aniqlanadi:

$$V_p = r\omega(\sin\varphi + \frac{\lambda}{2}\sin 2\varphi)$$

bu yerda:  $\omega$  - tirsakli valning burchak tezligi.

Porshenning o'rtacha tezligi esa quyidagiga teng. Yoki

$$V_{o,r} = \frac{S \cdot n}{30}$$

Porshenni ikki chekka nuqtalar orasidagi harakati **takt** deyilib, u ishchi siklning bir qismi hisoblanadi.

Taktlar quyidagilar:

❖ **kiritish takti** - porshen YUCHN dan PCHN ga harakat qiladi;

❖ **siqish takti** - porshen PCHN dan YUCHN ga harakat qiladi;

❖ **kengayish takti** - porshen YUCHN dan PCHN ga harakat qiladi;

❖ **chiqarish takti** - porshen PCHN dan YUCHN ga harakat qiladi.

Porshen yuqori chekka nuqtada turganda, uning tubi bilan silindrler kallagining ichki yuzasi orasida ma'lum hajm mavjud bojadi. Shu hajm **yonish kamerasi** deb atalib,  $V_c$  bilan belgilanadi.

Porshen yuqori chekka nuqtadan pastki chekka nuqtaga harakat qilganda bo'shatayotgan hajmni **ishchi hajm** deb ataymiz va uni  $V_h$  bilan belgilaymiz. Bu hajm litrda yoki sm<sup>3</sup> da oichanib quyidagicha aniqlanadi:

$$M_h = \frac{\pi D^2}{4} S$$

bu yerda: D - silindming diametri, sm.

S - porshen yo'li, sm.

Dvigatel ko'p silindrli bo'lsa, har bir ishchi hajmlarining yig'indisini dvigatelning **litraji** deb ataymiz va u ham litrlarda o'lchanadi.Belgisi Vi.

Ishchi hajmlaming yig'indisi, ya'ni dvigatelning **litraji** quyidagicha aniqlanadi.

$$V_i = i * V_h, 1$$

bu yerda: i - silindrler soni.

Porshen pastki chekka nuqtada turganda, yuqorisida ikkita hajm mavjud bo'ladi, ya'ni yonish kamerasining hajmi  $V_c$  va ishchi hajm  $V_h$ . Ikkala hajmlaming yig'indisi silindming to'la hajmini tashkil etadi.

$$V_a = V_h + V_c$$

bu yerda:  $V_a$ - silindming to'la hajmi, 1 yoki sm<sup>3</sup>.

Silindming to'la hajmini yonish kamerasining hajmiga nisbati **siqish darajasini** beradi va  $\epsilon$  bilan belgilanadi va quyidagi ifoda orqali topiladi

$$\epsilon = \frac{V_a}{V_c}$$

Siqish darajasi silindr ichiga kirgan havo yoki aralashmani porshen PCHN dan YUCHN ga harakatida necha barobarga siqilishini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatellarda 6 . .. 1 0 gacha, dizel dvigatellarda 16...22 gacha o'zgaradi.

Dvigatelning ishchi sikli deb, har bir silindr laming ichida jarayonlaming (kiritish, siqish, yonish, kengayish, chiqarish) davriy ravishda ketma-ket takrorlanishiga aytildi.

### **IYODlar rivojlanishi-ning asosiy yo'nalishlari va vazifalari. Dvigatellarning ekologik ko'rsatkichlari: ishlatalgazlarning zaharliligi va tutunlik darajasi.**

Ma'lumki avtomobillar jaxon axolisining turmushida ahamiyati juda katta. Avtomobilarning soni tez sur'atlar bilan ko'payib bormokda. Lekin avtomobilarning atrof muhit va inson salomatligiga katta salbiy ta'siri borligini chetda koldirib bo'lmaydi. Masalan, bir avtomobil dvigateli uz tsilindrлari orqali 60 dakika ichida taxminan 100 litr yonilg'i va havo aralashmasini o'tkazadi, shu vaqt ichida 100 ta odam nafas olishi uchun kerak bo'lган xafo sarflanishi mumkin. Bitta avtomobil tashki muhitga 800 kg SO, 220 kg SO<sub>2</sub> va 40 kg NO gazi hamda bir qancha boshqa zararli gazlarni chiqaradi. Avtomobilarning ob'ektga ko'rsatayotgan tasirini hammasini yo'q qilish kiyin albatta, lekin bu tasirlprni ma'lum darajada kamaytirish mumkin. Bunga misol qilib "Elektron boshqaruvi modulъ" keltirsak bo'ladi. Elektron boshqaruvi modulning avtomobillarda qo'llanishi tejamkorlikni oshirdi, ishlab bo'lган gazlar tarkibidagi zararli gazlar miqdori minimallashtirdi, texnik xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirdi va ekspluatatsion harajatlarni kamaytirdi. Elektron boshqaruvi modulъ asosan elektron blok, diagnostika raz'emi, ogaxlantiruvchi qizil chiroq, signallarni uzatuvchi simlar, dakchiqlar va injektorlardan tashkil topgan. Injektorli elektron boshqaruvi avtomobillarda asosan yuklanishga qarab

dvigatejni, elektron blok, datchiklardan kelayotgan elektro-signallarni uzi tushunadigan tilda qabul qilib olib, o'z xotirasidagi avvaldan kiritilgan optimalb qiymatlar bilan taqqoslab, kerakli miqdordagi yenilgi bilan taminlaydi va dvigatejni ishi davrida hosil bo'lган nosozliklarni o'z xotirasida saqlaydi. Nosozliklarni elektron blok istemolchiga yoki texnik xizmat ko'rsatish xodimiga maxsus nosozlik kodlari orqali ko'rsatkichlar peshtokidagi dvigatelga texnik xizmat ko'rsatishning ogaxlantiruvchi qizil chirogi orqali xabar beradi. Nosozlik kodlari ogaxlantiruvchi qizil chiroqning yenib o'chish oraligi va davomiyligi orqali aniqlanadi. O'rnatilgan diagnostika qo'yish vositasi ya'ni elektron blok yordamida avtomobilga tez va aniq diagnostika qo'yish mumkin. Har bir nosozlik kodi uch marttadan o'sib borish tartibida ogaxlantiruvchi chiroq orqali beriladi. Masalan; dvagatel ishlayotgan vaqtida ogaxlantiruvchi qizil chiroq yonib qolsa bu nozozlikdan dalolat beradi. Nozozlikni aniqlash uchun elektron blokning diagnostika raz'emidagi A va V uyalar to'g'ridan to'g'ri peremichka orqali ulanadi. Bunda sovitish sistemasi varragi yuqori tezlikda ishlab ogaxlantiruvchi qizil chiroq nosozlik kodlarini bera boshlaydi. Ogaxlantiruvchi qizil chiroq dovomi kiska bir yonib uchsa va yana kiska ikki martta yonib uchsa, bu 12 kodni beradi. Nosozlik kodi 12 davomiy bo'lsa, bu nosozlik yo'qligidan dalolat beradi. Agar uch martta 12 koddan so'ng boshqa kodlar berilsa bu nosozlik borligidan dalolat beradi. Bunda nosozlik bor qism kodlar orqali aniqlanib, unga texnik xizmat ko'rsatiladi.

### 1.Avtomobil dvigatellarining ekspluatatsion ko'rsatkichlari

Dvigatelning ishlashini xarakterlovchi ko'rsatkichlar mayjud. Shu ko'rsatkichlar bo'yicha dvigatellami qaysi traktor yoki avto- mobilga o'matilishini, qanday ishlami bajarishga mo'ljallanishini, qishloq xo'jalik mashinalari bilan agregatlanishi yoki yuklami tashishga mo'ljallangan avtomobillarga o'matilishi bo'yicha xulo- salar qilishga yordam beradi. Odatta bu ko'rsatkichlar dvigatel- laming texnik tavsifnomalariga yozib qo'yilgan bo'ladi. Chunki ular dvigatellaming ishlab chiqarilish sifatini belgilaydi. Ko'rsatkichlar quyidagilar:

**1.** Aylantiruvchi moment. Bu moment tirsakli valning krivoshipiga ta'sir etayotgan kuchni krivoship radiusiga ko'paytirilishi bilan aniqlanib, odatda, N.m larda o'lchanadi.

**2.** Quvvat. Bu quwat vaqt birligi ichida bajarilgan ish bilan o'lchanib, kiloVattlarda o'lchanadi, ya'ni kVt.

Dvigatelning indikator quwati. Yongan aralashmani kengayishi oqibatida silindming ichida birlik vaqtida ma'lum ish bajariladi. Demak, silindr ichidagi gazlamining yonishidan hosil bo'layotgan quwatga indikator quvvat deyiladi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$N_i = p_i V_h \frac{ni}{450\tau}$$

bu yerda:  $P_i$  - o'rtacha indikator bosim, kG/sm<sup>2</sup>;

$V_h$ - silindming ishchi hajmi, 1;

n - tirsakli valning aylanishlar soni, ayl/min;

i - silindrler soni;

$\tau$  - taktlilik koefitsienti. To'rt taktli dvigatellar uchun  $\tau=4$  ga, ikki taktli dvigatellar uchun  $t=2$  ga teng.

Dvigatelning samarali quwati. Bu quvvat dvigatelning tirsakli valida hosil bo'lib, u orqali foydali ish bajariladi.

Bu quvvat quyidagicha aniqlanadi:

$$N_e = p_e V_h \frac{ni}{450\tau} \quad \text{o.k. yoki (kVt)} \quad 8$$

bu yerda:  $p_e$ - o'rtacha samarali bosim, kG/sm<sup>2</sup>.

Odatda samarali quvvat  $N_e$  o'rtacha indikator quvvat N; dan 10...12% ga oz bo'ladi. Ulaming farqi dvigatellardagi ichki ishqalanishlarga sarflanadi.

Yuqoridagi quwatlamani olish uchun sarflanadigan yonilg'i sarfi quyidagicha:

1. Yoqilg‘ining indikator solishtirma sarfi, gi

$$g_i = 1000 \cdot G_t / N_j \quad g/kVt-soat$$

2. Yoqilg‘ining samarali solishtirma sarfi, ge

$$g_e = 1000 \cdot G_t / N_e \quad g/kVt-soat \quad 10$$

bu yerda:  $G_t$  - yoqilg‘ining soatlik sarfi.

Indikator foydali ish koeffitsienti (FIK). Silindming ichiga kiritilgan yonilg‘ini yonishidan hosil bo‘lgan issiqlikni qancha qismi ish bajarishga sarflanishini ko‘rsatadi.

$$\eta_i = \frac{Q_i}{Q_T} = \frac{3600}{q_e H_n}$$

bu yerda:  $Q_i$  - bajarilgan ishga ekvivalent bo‘lgan issiqlik;  $Q_T$  - yonilg‘ini yonishidan olingan hisobiy issiqlik;  $N_i$  - yonilg‘ini yonishidagi eng past solishtirma issiqlik.

Avtomobil va traktor dvigatellarida  $\eta_i = 0,26...0,31$ , dizel dvigatellarida  $\eta_i = 0,38...0,41$  atrofida bo‘ladi. Bu ko‘rsatkichlar ishchi siklning mukammal bajarilishini ko‘rsatadi.

Samarali foydali ish koeffitsienti (FIK) quyidagicha aniqlanadi:

$$\eta_e = \frac{Q_i}{Q_T} = \frac{G_t 3600}{N_e}$$

bu yerda:  $G_t$  - bir sekundli yonilg‘i sarfi, kg/s;

$N_e$  - samarali quvvat, kVt.

Samarali FIK deb tirsakli valda foydali Ishga aylangan issiqlikni dvigatelga berilgan umumiy issiqlikka bo‘lgan nisbatiga aytildi.

Samarali FIK karbyuratorli dvigatellarda 0,22...0,21, dizel dvigatellarida 0,26...0,37 atrofida bo‘ladi.

Ko‘pincha dvigatellar litr quwat orqali baholanadi. U quyidagicha aniqlanadi:

$$N_I = \frac{N_e}{i \cdot V_h} = \frac{p_e n_n}{30 \cdot \tau},$$

Bu kattalik dvigatelning ishchi hajmidan foydalanish darajasini bildiradi. Litr quvvat qancha katta bo‘lsa, dvigate shuncha yengil va ixcham bo‘ladi.

## 2-mavzu. Avtotraktor dvigatellarining ish sikllari.

### REJA

1.To‘rt va ikki taktli dvigatellarda r o‘y beradigan gaz almashish jarayonlari.Kiritish, siqish, kengayish va chiqarish jarayonlari.

2. Qoldiq gazlar koeffitsiyenti. Kiritish jarayonining oxiridagi harorat. Qoldiq gazlar va to‘ldirish koeffitsiyentlari. To‘ldirish koeffitsiyentiga ta’sir qiluvchi konstruktiv omillar.


3.Havoning ortiqlik koeffitsiyenti. Yonuvchi arlashma tarkibi va miqdori. IYOD uchun muqobil yonilg‘ilar (gaz kondensati, gazsimon yonilg‘ilar, spirtlar, efirlar, vodorod va boshqa yonilg‘ilar) to‘g‘risidagi asosiy ma’lumotlar.

4.Havo bosim ostida beriladigan (nadduvli) dvigatellarda gaz almashish jarayonining o‘ziga xosligi.

1.To‘rt va ikki taktli dvigatellarda r o‘y beradigan gaz almashish jarayonlari.Kiritish, siqish, kengayish va chiqarish jarayonlari.

## 2.1. To'rt taktli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatelning ishchi sikli

To'rt taktli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatelning ishchi sikli 4 takt davomida bajariladi, ya'ni kiritish, siqish, kengayish va chiqarish taktlari. Lekin shu to'rt takt davomida beshta jarayon amalga oshadi, ya'ni kiritish jarayoni, siqish jarayoni, yonish jarayoni, kengayish jarayoni va chiqarish jarayoni. To'rt taktli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatelning ishlashi 2.1-rasmida ko'rsatilgan.



a - kiritish; b - siqish; d - ishchi yurish (kengayish takti); e - chiqarish.

1 - tirsakli val; 2 - kiritish klapani; 3 - silindr; 4 - chiqarish klapani; 1 - porshen; 6 - porshen barmog'i; 7 - shatun; 8 — yondirish chaqmog'i.

## 2.1- rasm. To'rt taktli uchqun yordamida alangalantiriladigan dvigatelning ishlashi

Dvigatelning ish siklini o'rganish uchun porshen YUCHNda turipdi, deb hisoblaymiz.

Kiritish takti-kiritish jarayoni. Kiritish klapani 2 ochiq, chiqarish klapani berk. Porshen YUCHNDan PCHNGa harakat qiladi, uning yuqorisida siyraklanish hosil bo'ladi. Karbyuratorдан havo bilan benzin (gaz) aralashmasi kirib, silindmi to'ldiradi. Porshen PCHN ga yetganda kiritish takti tugaydi.

Siqish takti-siqish jarayoni. Kiritish klapani berkiladi. Chiqarish klapani ham berk. Porshen PCHNDan YUCHNGa harakat qiladi. Natijada aralashma qisilish natijasida qiziydi. Bosim 1... 10 kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa 210.. .300°C ga yetadi.

Yonish jarayoni. Porshen YUCHNGa yetishiga yaqin qolganda yondirish svechasi 8 orqali uchqun beriladi.

Natijada qizib, yonishga tayyor turgan yonuvchi aralashma yonib ketadi va silindr ichida bosim 30..31 kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa

2300.. .2100°C ga ko'tariladi. Bu yuqori bosim endi porshen tubiga ta'sir etadi va u PCHNGa qarab siljiy boshlaydi.

Kengayish takti - kengayish jarayoni. Porshen yuqori bosim ostida PCHN tomon harakatlanadi, natijada bosim shatun bo'yniga ta'sir etib, tirsakli valni aylantiradi va quvvat olinadi. Shu tariqa porshen o'zining ishchi yo'lini bajaradi. Kengayish taktining oxirida bosim 3,1...4,1 kG/sm<sup>2</sup> gacha pasayadi.

Chiqarish takti - chiqarish jarayoni. Endi porshen PCHNDan YUCHN tomon harakatni boshlaydi. Bu vaqtida chiqarish klapani 4 ochiladi. Yuqoriga harakat qilayotgan porshen yonib bo'lgan gazlami siqib chiqaraboshlaydi. U YUCHNGa yetib kelganda, bosim 1,01... 1,2 kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa 600..900°C atrofida bo'ladi. Shu bilan sikl tugaydi va u yangitdan boshlanadi.

Demak, bir silindrli dvigatelda porshenning bitta ishchi yo'li, to'rt takt davomida yoki tirsakli valning ikki aylanishida bajariladi.


## 2.2. To'rt taktli dizel dvigatelning ishchi sikli

To'rt taktli dizel dvigatelining ishchi sikli uchqun yordamida alan- galantiriladigan dvigatelning ishchi sikli bilan bir xil. Bunda ham ishchi sikl, davriy ravishda takrorlanuvchi to'rtta takt davomida amalga oshi- riladi. Lekin bir-biridan farq qiluvchi tomonlari ham bor. Bu ham bo'lsa:

- kiritish takti davomida dizel dvigatelining silindrleriga yonuvchi aralashma emas, balki havo so'rildi;
- siqish darajasi katta bo'lgani uchun ( $e=16\dots22$ ) silindrda so'rilgan havoning harorati siqish taktining oxirida uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatellamikiga qaraganda yuqori bo'ladi;
- siqish taktining oxirida silindrda uchqun emas, balki yonilg'i mayda tuman shaklida purkaladi. Qizib turgan havoga yonilg'i purkalishi bilan yonib ketadi.


Bir silindrli dizel dvigatelining ishlashi 2.2-rasmda ko'rsatilgan.

a — kiritish; b - siqish; d - ishchi yo' ' (kengayish); e - chiqarish taktlar



**2.2-** rasm. To‘rt taktli dizel dvigatelining ishlashi.

1 - silindr; 2 - porshen; 3 - forsunka; 4 — kiritish klapani; 1 - chiqarish klapani; 6 - yuqori bosimli nasos.



Kiritish takti. Bunda porshen YUCHNdan PCHNga harakat qiladi. Kiritish klapanidan silindrga havo so‘riladi. Takning oxirida bosim  $0,8\ldots0,91$  kg/sm<sup>2</sup>, harorat esa  $30\ldots10^{\circ}\text{C}$  atrofida bo‘ladi.

Siqish takti. Ikkala klapan ham berk. Porshen PCHNdan YUCHNga harakat qilib, havoni qisadi. Siqish darajasi  $8=16\ldots22$ . Siqish taktining oxirida bosim  $31\ldots40$  kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa

$600\ldots610^{\circ}\text{C}$  atrofida bo‘ladi.

Yonish jarayoni. Siqish taktining oxirida tirsakli val aylanib, YUCHNga  $11\ldots20^{\circ}$  qolganda forsunkadan yuqori bosimda yonilg‘i purkaladi. Purkalgan yonilg‘i qizib turgan havoga tegishi bilan alangalanib ketadi. Bu vaqtda bosim  $60\ldots90$  kG/sm<sup>2</sup> ga, harorat esa


$1200\ldots2000^{\circ}\text{C}$  ga yetadi.

Kengayish takti. Silindr ichidagi bosim ostida porshen shatun orqali YUCHNdan PCHNga bo‘lgan harakati davomida ishchi yo‘1- ni amalga oshirib, tirsakli valni aylantirib yuboradi. Kengayishning oxirida bosim  $30\ldots40$  kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa  $800\ldots900^{\circ}\text{C}$  atrofida bo‘ladi.

Chiqarish takti. Porshen PCHNdan YUCHNga harakatini boshlaydi. Bu vaqtda chiqarish klapani ochiladi. YUCHNga yetganda chiqarish takti tugaydi. Shu bilan sikl ham tugaydi. Endi u boshidan boshlanadi. Chiqarish taktining oxirida bosim  $1,01\ldots1,2$  kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa  $600\ldots700^{\circ}\text{C}$  atrofida bo‘ladi.

### **2.3. Ikki taktli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigateining ishchi sikli**

Ikki taktli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatelning ishchi sikli tirsakli valning bir aylanishida yoki porshenning ikki yo‘li davomida amalga oshadi. Ikki taktli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatelning ishlashi 2.3-



rasmda ko‘rsatilgan.

a -yonuvchi aralashma siqilgan - uchqun berilmoxda; b - chiqarish va kiriiish

tuyniklari ochiq; d — siqish va karterni aralashmaga to Hdirish.

1 - silindr; 2 - uchqun (chaqmoq) beruvchi; 3 -porshen; 4 - shatun;

1 - krivoship; 6 - karter.

tish tuynugi; b - chiqarish tuynugi; c - haydash tuynugi; d - karter bilan bog ‘langan tuynuk.

“

### **2.3- rasm. Ikki taktli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatelning ishlashi.**

Silindr 1 da uchta tuynuk yasalgan: atmosfera bilan bog‘langan chiqarish tuynugi b, karbyurator bilan bogiangan kiritish tuynugi a va karter\_d bilan bog‘langan haydash kanali c.

Birinchi takt. Porshen YUCHNda bo‘iib, aralashma siqilgan holatda. Porshen YUCHNg'a ko‘tarilishi davrida, karterda siyrak- lanish hosil bo‘lgani uchun karbyuratordan


aralashma a tuynuk orqali karterga kirib turgan bo‘ladi. Chaqmoqdan uchqun berilib (2.3 a-rasm) aralashma yonadi, natijada bosim va harorat ko‘tariladi. Hosil bo‘lgan bosim ostida porshen pastga harakatlanib ishchi yo‘lni bosib o‘tadi. Ishchi yo‘lning oxirida porshen chiqarish tuynugi b ni ochadi (2.3-b rasm) va yongan gazlaming bosimi atmosfera bosimidan yuqori bo‘lgani uchun ( $2\dots3\text{ kG/sm}^2$ ) katta tezlikda tashqariga chiqqa boshlaydi. Demak, chiqarish amalga oshiriladi. Porshen pastga yurish davomida haydash tuynugi c ham ochiladi va karterdagagi qisilayotgan aralashma d kanal orqali silindrga kira boshlaydi va kiritish jarayoni bajariladi.

Demak, birinchi takt davomida ishchi yo‘l, chiqarish va aralash- mani haydash jarayonlari amalga oshadi.

Ikkinci takt. Agar birinchi taktda porshen YUCHNdan PCHN ga harakat qilgan bo‘lsa, ikkinchi taktda PCHNdan YUCHN tomon harakat qiladi. Shu harakat davomida porshen haydash tuynugi s ni va chiqarish tuynugi b ni berkitadi. Barcha tuynuklar berkitilishi bilan silindrga kirgan aralashmaning siqilishi amalga oshiriladi. Lekin a tuynuk ochilib karterga aralashma kiritib boradi. Demak, ikkinchi taktda, siqilish paytda esa aralashmani karterga kirishi amalga oshirilmoqda. Porshen YUCHNga yetishi bilan chaqmoqdan uchqun beriladi va sikl yangidan boshlanadi.

#### **2.4. Ikki taktli dizel dvigatelining ishchi sikli**

Bu dvigateli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigateldan farqi shuki, unda uchqun chaqmog‘i o‘miga forsunka o‘matilgan va karbyuratoming yo‘qligidir. Bu dvigatelning ishlashi 2.4-rasmda ko‘rsatilgan.



a - karterga kirgizish tuynugi; b - chiqarish tuynugi; c - haydash tuynugi.

1 - karter; 2 - porshen; 3 -forsunka; 4 -yuqori bosimli yoqilg'i nasosi.

#### **2.4- rasm. Ikki taktli dizel dvigatelining ishlashi.**

Dizel dvigatelining uchqun bilan alangalantiriladigan ikki taktli dvigatelga nisbatan yana farqi shuki, silindming ichiga aralashma

haydalmasdan, havo haydaladi. Havo kiritish tuynugi a orqali karterga to‘ldiriladi. Yana farqi silindrda aralashma siqilmasdan, havo siqiladi. Siqish darajasi  $e=16$  bo‘lganligi uchun siqish taktining oxirida bosim  $p=31\dots40$  kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa  $600\dots610^{\circ}\text{C}$  atrofida bo‘ladi. Siqishning oxirida yoqilgri yuqori bosimli nasos va forsunka yordamida silindrغا purkaladi va qizib turgan havo bilan aralashib yonib ketadi, bosim  $60\dots90$  kG/sm<sup>2</sup> gacha ortadi. Bosim ostida porshen PCHN tomon harakatlanishi davomida oldin chiqarish tuynugi b ni ochadi. Chiqish jarayoni boshlanadi. Keyin haydash tuynugi c ochiladi va karterdag'i havo silindrغا to‘laboshlaydi. Porshenning ikkinchi taktida PCHNdan YUCHNga tomon harakat qilib, tuynuk c ni bekitadi va silindrغا kirgan havoni siqaboradi. Bu vaqtda a tuynuk ochilib, yana havo karterga kiradi. Porshen YUCHN ga yetganda yonilg‘i purkaladi va sikl boshidan boshlanadi.

## **2.5. Ikki taktli dvigatel bilan to‘rt taktli dvigateli ni taqqoslash**

**Yutug‘i:**

- bir xil quwatga ega bo‘lganda, ikki taktli dvigatel tekis ishlaydi va gabarit o‘lchamlari kichik hamda yengil bo‘ladi;
- ikki taktli dvigatelda klapanli mexanizmning yo‘qligi tufayli konstruksiyasi sodda;
- barcha parametrlari bir xil sharoitda ikki taktli dvigatelning quwati to‘rt taktiliga nisbatan  $1,6\dots 1,7$  barobarga ko‘p bo‘ladi;
- ikki taktli dvigatelning tirsakli val va shatun boltlari tekis yuklanadi.

**Kamchiligi:**

- qoldiq gazlar koeffitsientining yuqoriligi bois, ikki taktli dvigateli sarfi ko‘p.

haydalmasdan, havo haydaladi. Havo kiritish tuynugi a orqali karterga to‘ldiriladi. Yana farqi silindrda aralashma siqilmasdan, havo siqiladi. Siqish darajasi  $e=16$  bo‘lganligi uchun siqish taktining oxirida bosim  $p=31\dots40$  kG/sm<sup>2</sup>, harorat esa  $600\dots610^\circ\text{C}$  atrofida bo‘ladi. Siqishning oxirida yoqilg‘i yuqori bosimli nasos va forsunka yordamida silindrga purkaladi va qizib turgan havo bilan aralashib yonib ketadi, bosim  $60\dots90$  kG/sm<sup>2</sup> gacha ortadi. Bosim ostida porshen PCHN tomon harakatlanshi davomida oldin chiqarish tuynugi b ni ochadi. Chiqish jarayoni boshlanadi. Keyin haydash tuynugi c ochiladi va karterdag'i havo silindrga to‘laboshlaydi. Porshenning ikkinchi taktida PCHNdan YUCHNga tomon harakat qilib, tuyruk c ni bekitadi va silindrga kirgan havoni siqbaboradi., Bu vaqtda a tuyruk ochilib, yana havo karterga kiradi. Porshen YUCHN ga yetganda yonilg‘i purkaladi va sikl boshidan boshlanadi.

## 2.5. Ikki taktli dvigatel bilan to‘rt taktli dvigateli taqqoslash

Yutug‘i:

- bir xil quwatga ega bo‘lganda, ikki taktli dvigatel tekis ishlaydi va gabarit o‘Uchamlari kichik hamda yengil bo‘ladi;
- ikki taktli dvigatelda klapanli mexanizmning yo‘qligi tufayli konstruksiyasi sodda;
- barcha parametrлari bir xil sharoitda ikki taktli dvigatelning quwati to‘rt taktiliga nisbatan  $1,6\dots1,7$  barobarga ko‘p bo‘ladi;
- ikki taktli dvigatelning tirsakli val va shatun boltlari tekis yuklanadi.

Kamchiligi:

- qoldiq gazlar koeffitsientining yuqoriligi bois, ikki taktli dvigatelning issiqlikdan yuklanishi yuqori;
- ikki taktli dvigatellaming silindrлarini tozalash va yangi zaryad bilan to‘ldirish, kiritish va chiqarishga vaqtning ozligi bois to‘rt taktli dvigatelniga qaraganda yomon;
- havo yoki aralashma awal karterga kiritilgani uchun uning germetikligini yaxshilash va moy sathini bir xil ushlab turish kerak bo‘ladi;
- kiritish va chiqarish klapanlari bo‘lmagani uchun yonilg‘i sarfi ko^.

## 2.6. Dizel va uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatellarni taqqoslash

Dizel dvigateli uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatellarga nisbatan quyidagi afzallikkarga ega:

- bir birlik ish bajarish uchun o‘rtacha  $21\dots30\%$  yoqilg‘ini kam sarflaydi;
- ng issiqlikdan yuklanishi yuqori;
- ikki taktli dvigatellaming silindrлarini tozalash va yangi zaryad bilan to‘ldirish, kiritish va chiqarishga vaqtning qzligi bois to‘rt taktli dvigatelniga qaraganda yomon;
- havo yoki aralashma awal karterga kiritilgani uchun uning germetikligini yaxshilash va moy sathini bir xil ushlab turish kerak bo‘ladi;
- kiritish va chiqarish klapanlari bo‘lmagani uchun yonilg‘i
- foydalanilayotgan yoqilg‘ini yong‘indan xavfi ozroq;


- o‘t oldirish tizimining yo‘qligi tufayli, dvigatelning konst- ruksiyasi sodda. Uchqun bilan alangalantiriladigan dvigatelning afzalligi quyi- dagilar;
- ba’zi tizimlari, ayniqsa, ta’minalash tizimining tuzilishi sodda;
- siqish darajasi kam bo‘lganligi uchun dvigatelning detallari yengilroq, demak dvigatelning og‘irligi ham kamroq;
- dvigatelning yondirilishi nisbatan oson;
- yoqilg‘ini tozalashga dvigatelning ko‘p quwati sarf bo‘lmaydi.

## **2.7. Ko‘p silindrli dvigatelning ishlashi**

Bir silindrli dvigatelda tirsakli val notekis aylanadi. Kengayish taktida tez, boshqa taktlar davomida sekin aylana boshlaydi. Silindr- porshen-shatun guruhi yonuvchi gazlar yonganda hosil bo‘ladigan gazlaming bosimi ostida zo‘riqib ishlaydi. Boshqa taktlar davomida gazlaming bosimi tez kamayadi. Bosimni davriy ravishda maksimal va minimal miqdorga o‘zgarib turishi, yuqorida guruh detallarini charchatadi va tayyorlangan metallning mexanik xususiyatlariga ta’sir qiladi, yeylimishi ortadi.

Ularga o‘matilgan maxovikka dvigatelning bir tekisda aylani- shini ta’minalash vazifasi yuklatilgan bo‘lsada, dvigatel bir silindrli bo‘lganda, kerakli natijani bermaydi. Uning ustiga maxovikning og‘irligini va gabarit o‘lchamlarini ortishiga sabab bo‘ladi.

Yana bir tomoni shuki, bir silindrli dvigatelda inersiya kuchi ortib ketadi, uni muvozanatlash esa qiyinlashadi.



**I - Kiritish takti**

**4 - Kengayish**

**- Siqish takti**

**X- Chiqarish**

. Ishlash ketma-ketligi 1-3-4-2 bo‘lgan to‘rt taktli, to‘rt silindrli dvigatelning ishlashi.

Yana bir muammo shuki, bir silindrli dvigatellarda tirsakli valni qisqa vaqtida aylanishlar sonini orttirish qiyin masala.

Bu kamchiliklami ma’lum darajada bartaraf qilishning yo‘li, silindrler sonini ko‘paytirish hisoblanadi. Ko‘paytirilgan silindrler ning diametri bir xil bo‘lib, ular bitta umumiyl tirsakli valga bir-lashgan bo‘lishi kerak. Agar dvigatel to‘rt silindrli bo‘lsa muvozanatlash nuqtayi nazaridan 1 va 4 silindrlaming shatun bo‘yinlari bir tekislikda, 2 va 3 silindrlaming shatun bo‘yinlari ham o‘scha tekislikda, lekin ulaming yo‘nalishi qarama-qarshi bo‘lishi kerak, ya’ni ular  $180^\circ$  burchak ostida bo‘lishi kerak. U holda 1 va 4 silindrda porshenlar yuqoriga ko‘tarilsa, 2 va 3 silindrlaming porshenlari shu paytda pastga harakat qiladi. U vaqtida kengayish takti birinchi, so‘ng uchinchida, keyin to‘rtinchida, so‘ng ikkinchida bajariladi, ya’ni to‘rt silindrli dvigatelda silindrleri ishlash ketma-ketligining sxemasi 1-3-4-2 bo‘ladi (2.1-rasm). Ba’zi dvigatellarning sxemasi 1-2-4-3 bo‘lishi ham uchraydi. Kerakli ma’lumotlami rasm osti yozuvlardan o‘rganish mumkin.

To‘rt silindrli dvigatelda kengayish taktini 1-3-4-2 sxema bilan ishlagandagi ketma-ket bajarilishining diagrammasi 2.6-rasmida keltirilgan. Ishchi yo‘lning silindrlerda bajarilishi bir-biridan  $90^\circ$  ga farq qiladi.

2. Qoldiq gazlar koeffitsiyenti. Kiritish jarayonining oxiridagi harorat. Qoldiq gazlar va to‘ldirish koeffitsiyentlari. To‘ldirish koeffitsiyentiga ta’sir qiluvchi konstruktiv omillar.

